



IMPROVING THE TEACHING METHODS OF BIOLOGY IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS ON THE BASIS OF A COMPETENCY-BASED APPROACH

Sh.T.Haqberdiyeva
Institute Assistant
Pedagogy of Termez State University

Annotation

The use of basic competencies in the teaching of biology from the subjects included in the curriculum of general secondary schools is very effective. Competency-based education is education that focuses on developing students' ability to apply the knowledge, skills, and competencies they have acquired in their personal, future professional, and social activities. So, a competency-based approach is a pressing issue for the education system.

Keywords: Competence, education, upbringing, innovation, information, literacy, activation, function, objects, etc.

Annotatsiya

Umumiy o'рта ta'lim maktablari o'quv rejasidan o'rin olgan o'quv fanlaridan biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarga tayanch kompetensiyalardan foydalanish juda katta samara beradi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim- o'quvchilarga yegallagan bilim, ko'nikma va mvlakalarni o'z shaxsiy, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishni shakllantirishda yo'naltirilgan ta'limdir. Demak, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masaladir.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, ta'lim, tarbiya, innavason, axborot, savodxonlik, faollashtirish, funktsiya, ob'ektlar va h.k.

Аннотация

Использование базовых компетенций в обучении биологии из предметов, входящих в учебную программу общеобразовательной школы, очень эффективно. Компетентностное образование – это образование, направленное на развитие у учащихся способности применять полученные знания, навыки и компетенции в личной, будущей профессиональной и общественной деятельности. Это означает, что компетентностный подход является актуальной проблемой, стоящей перед системой образования.

Ключевые слова: компетентность, образование, воспитание, инновация, информация, грамотность, активизация, функция, объекты и др.



Introduction

O'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarini tamomlagandan so'ng, uzluksiz ta'lim tizimida o'qishni davom ettirish, kelgusida mustaqil hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini yegallashi, mazkur jarayonida duch keladigan muammolarning yechimini hal yetish, yeng muhimi o'z sohasi, uchun zarur bo'lgan tayanch kopetensiyalarga ega bo'lishi lozimdir. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatidi o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida kompetensiyali yondoshuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv jarayonini innavason texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiy prinsiplar yig'indisi sanaladi.

Ular jumlasiga quyidagilarni: O'quvchilarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo'nalishlardagi muammolarni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib hal etish, zaruriy hollarda talab etiladigan faoliyatni bekamu-ko'st bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish;

Biologik ta'lim mazmunini tanlash va metodik ta'minotni yaratishda o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, ekologik muammolarni hal etish, didaktik jihatdan qayta ishlangan o'zida o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradigan bo'lishiga e'tibor qaratish;

Biologik ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy maqsad o'quvchilarda DTS bilan me'yoriy bilim, ko'nikma, malakalarni shakillantirish, shuningdek, axborot bilan ishlash, kommunikativ ko'nikmalarni egallash, matematik savodxonlik, ijtimoiy faollikka ega bo'lish, o'quv muammolarini mustaqilhal etishga doir tajribalarni egallashiga sharoit yaaratish; Ta'lim-tarbiya jarayoning natijalari mazkur jarayonning muayyan bosqichida erishilgan natijalar, ya'ni o'quvchilar tomonidan kompetensiyaga asos bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganlik darajalariga qarab baho beriladi;

Kompetensiyali yondoshuvda-o'qitish maqsadlari o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushinish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustivor yo'nalishlarni mo'ljallashnazarda tutiladi; Kompetensiyali o'qitish jarayonida quyidagi funksiyalarni amal oshirish imkoniyati mavjud: Davlatimizning kelgusida jamiyat, fan, ishlab chiqarish va mustaqil hayotdagi muammolarni hal etishga qodir yoshlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qodirish;

O'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish;



O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribalarini aniq ob'ektlarga qaratish va mavjud muammolarni hal etish;

O'quvchilarni aniq amaliy faoliyatga tayyorgarligini orttirish orqali kasbga, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish natijasida fan yo'nalishiga yo'llash;

Biologiyadan o'zlashtirilgan ilmiy-nazariy bilimlarini aniq vajarayonli muammolivaziyatlarda amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash kabi funksiyalarni kiritish mumkin;

Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotdagi ahamiyatga ko'ra darajalarga ajratiladi. O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat biologiya o'quv fani orqali tortqiladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Adabiyotlar tahlili o'quvchilarda toptirqiladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratilishini ko'rsatdi.

1. Umumiy kompetensiyalar- umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv rejasidan o'rin olgan barcha o'quv fanlar mazmuni va o'qitish jarayoni orqali tarkib toptirqiladigan kompetensiyalar sanaladi.

2. Xususiy (biologik) kompetensiyalar-biologik ta'lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalar asosida tarkib toptirqiladigan kompetensiyalar hisoblanadi.

3. Fanlararo kompetensiyalar- o'quv rejadan o'rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o'quv fanlarni o'qitishda fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar nazarda tutiladi.

Biologiya fanidan o'quvchining kompetensiyasi- biologiya fan bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'lay olish qobiliyatidir.

Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda yuqorida qayd etilgan tayanch kompetensiyalarini tarkib toptirish maqsadida o'quv fani mazmunini tahlil, etishi, o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib borqiladigan ishlarni tizim va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalashi lozim. Quyida biologiyani o'qitishda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish imkoniyatlari yuzasidan fikr va mulohazalar yuritimiz..

Biologiya o'qituvchisi kommunikativ kompetensiyani tarkib toptirishni nazarda tutgan holda biologiya darslarida o'quvchilarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo'ladigan og'zaki va yozma nutqni mukammal o'zlashtirishi, o'z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo'shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og'zaki javob yozish, o'z o'rtoqlari va ustozlar bilan muloqotda muomala madaniyati me'yorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a'zolarining fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini bayon eta olish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalariga asoslangan holda o'z fikrini himoya qilish va ishontira olish, darslarda tashkil etqiladigan o'quv bahslar va turli vaziyatlarda o'z ehtirolarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo'lgan qarorlarini qabul qila olish, o'z ona tili bilan bir qatorda horijiy tillarni o'zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.



O'quvchilarda yuqori qayd etilgan o'quv mehnati ko'nikmalarining tarkib toptirilishi uchun o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tavsiya etqiladi. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda biologik kechalar va tanlovlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Biologiya (Zoologiya va Odam uning salomatligi)ni o'qitishda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda o'quvchilar tomonidan o'quv topshiriqlari va o'quvchining savollariga yozma va og'zaki javob berishda ta'lim olayotgan til me'yorlariga rioya qilish, kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida guruh a'zolarining javoblarini tinglay olish va o'z javobini mantiqan bayon qilish, biologik atamalarning inglizcha izohini ayta olish, o'rganilgan mavzu yuzasidan mantiqiy ketma-ketlikda berilgan savollarga javob yozish, darsdan tashqari ishlarda maktab, mahalla, jamoat joylari, oilada, sinflarda o'rtoqlari bilan ma'naviy-axloqiy me'yorlarga amalga qilgan muloqotga kirishish, insoniyat, tabiat, o'simlik va hayvonot olamiga nisbatan insonparvarlashtirilgan munosabatni namoyon qilish, o'zi va o'zgalarning salomatligini asrash yuzasidan esse va taqdimot tayyorlash, "tengdosh-tengdoshga" rukni asosida muloqotga kirishishlariga e'tibor qaratish lozim.

Biologiya (hayvonlar klassifikatsiyasi va inson organizmining a'zolari) ni o'qitishda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda amalga oshirqladigan ishlar mazmuni va nazorat shakli jadval asosida berilmoqda

Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda axborot bilan ishlash kometensiyasini tarkib toptirish maqsadida mavzuga oid o'quv va videofilmlardan foydalanish, qo'shimcha adabiyotlar va internet saytlardagi ma'lumotlarni saralashi, shu asosda o'quvchilarga referat, doklad va taqdimot materiallarini tayyorlash yuzasidan topshiriqlarni berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish uchun dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlardan samarali va o'z o'rnida foydalanish zarur.

Dars samarasi o'quvchilarning tayyorligini aniqlash, ularni guruhlariga ajratishda bolalarning yoshi va maktabda qancha vaqt o'qiganligiga emas, balki o'tilgan mashg'ulotlarni nechog'li o'zlashtirganliklari bilan aniqlanadi va ta'lim jarayonining qonuniyatlari, muayyan jamiyatning komil shaxs, kompetent inson borasidagi tushunchalari bilan qat'iytlashadi. Bunda Rivojlanayotgan pedagogik talablarga ko'ra zamonaviy dars: ta'limning tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilgan, o'quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan, ilmiy va izchil, tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan, insonparvarlik yo'nalishiga ega, tizimli, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilgan, amaliy ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda , bunda o'quvchida o'ziga nisbatan ishonchni orttirish, tassavurni rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish, bilim olishga undash muhim ahamiyat kasb etadi.Dars yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda doimiy ravishda o'rganish va rivojlantirish, faol va teran fikrlash, topshiriqlarni bajarishda nostandart usullardan foydalanish o'quvchiga egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hayoti davomida turli vaziyatlarda qo'llay olish, shaxsiy va jamiyat qadriyatlaridan kelib chiqib o'z professional yo'lini va hayotiy ko'rsatmalarini tanlash imkoniyatini beradi. Biologik masalalarni o'quvchi nafaqat ishlashi, balki muhokama qilishi zarur, masala hayotiy bo'lishi bolada hayotiy ko'nikmani shakllantiradi, amalda duch kelgan vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratadi,



o'quvchini ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi, tabiatni to'g'ri va to'la anglashga, undan oqilona foydalanishga, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'itishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. Toshkent-2014 y.
2. Niyozov Q. Biologik ta'lim jarayonida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari. – Namangan: Namangan VXTXQTMOI, 2017.
3. Tolipova J., G'ofurov A., Umaralievna M., Abdurahmonova I., Abdukarimov A., Eshonqulov O. «Biologiya». O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. -T.: «Sharq», 2017.
4. Tursunaliyevna X. S. NEW INNOVATIVE IDEAS IN TEACHING BIOLOGY //Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – 2021. – T. 1. – №. 1. – C. 31-32.
5. Niyozov Q. Biologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanishida innovatsion texnologiyalarning o'rni. – Toshkent shahar XTXQTMOI da tashkil etilgan «Xalq ta'limi tizimidagi «Mahorat maktablari» faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjumani materiallar to'plami. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2017.
6. Quronov M. Yoshlar tarbiyasi - strategik masala. // «Ma'rifat» gazetasi, 2017 yil 1 mart, 17-son.
7. Tursunov Q.SH. Toshpo'latov Ch.X, Qorjovov M.J "Fizika ta'limi texnologiyasi". Toshkent 2013.
Niyozov Q. Biologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanishida innovatsion texnologiyalarning o'rni. – Toshkent shahar XTXQTMOI da tashkil etilgan «Xalq ta'limi tizimidagi «Mahorat maktablari» faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjumani materiallar to'plami. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2017.
8. Abdullaev M., Rasulov M., Fayozova S, Umaraliyev hayvonlar zoologiyasidan dala praktikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari tabiiyot-geografiya fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «O'qituvchi». 1987, 80 b.
9. Dadaev S., Tuychiev S., Xaydarova P. Umurtqalilar zoologiyasidan
10. laboratoriya mashg'ulotlari. Oliy o'quv yurtlari biologiya ixtisosligi
11. talabalari uchun o'quv qo'llanma. Uzbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. T.: 2006, 224 b.